IJTIMOIY TARMOQLARDA RAQAMLI KONTENTDAN FOYDALANISH VA MUALLIFLIK HUQUQI: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Bekmuratov Davron Auyezmuratovich
Intellektual mulk markazi davlat muassasasi
Buxoro viloyati filiali bosh maslahatchisi
E-mail: davron.bekmuratov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.23473322

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, YouTube, TikTok, Telegram, Facebook va boshqalar) muhitida raqamli kontentdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan mualliflik-huquqiy munosabatlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan foydalanuvchi yaratgan kontent tushunchasi, platformalarning javobgarlik rejimi hamda huquq buzilishining tipik ko‘rinishlari — repost, remiks, mem, “cover” ijro va kontentni ruxsatsiz qayta joylashtirish — ochib berilgan. Milliy qonunchilik holati O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni asosida tavsiflanib, Yevropa Ittifoqining Raqamli yagona bozorda mualliflik huquqi to‘g‘risidagi direktivasi (2019/790) 17-moddasi va AQShning Raqamli ming yillik mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonuni (DMCA) 512-bo‘limi bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan solishtiriladi. Tadqiqot natijasida milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlar aniqlanib, platformalarning javobgarligini belgilash, “xabar berish va olib tashlash” (notice-and-takedown) tartibotini joriy etish hamda foydalanuvchilar huquqlarining kafolatlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kontent, foydalanuvchi yaratgan kontent, platforma javobgarligi, notice-and-takedown, DMCA, DSM direktivasi, intellektual mulk, huquqiy tartibga solish.

Abstract

The article analyses copyright relations arising from the use of digital content within social networks (Instagram, YouTube, TikTok, Telegram, Facebook, etc.). The author examines the concept of user-generated content, the liability regime of platforms, and typical forms of infringement — reposting, remixing, memes, cover performances and unauthorised re-posting of content. The state of national legislation is described on the basis of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Copyright and Related Rights" and compared, from a comparative-legal perspective, with Article 17 of the EU Directive on Copyright in the Digital Single Market (2019/790) and Section 512 of the U.S. Digital Millennium Copyright Act (DMCA). The study identifies gaps in national legislation and formulates scientifically grounded proposals on defining platform liability, introducing a notice-and-takedown procedure, and safeguarding users’ rights.

Keywords: copyright, social networks, digital content, user-generated content, platform liability, notice-and-takedown, DMCA, DSM Directive, intellectual property, legal regulation.

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda ijtimoiy tarmoqlar axborot almashinuvining asosiy maydoniga aylandi. YouTube, Instagram, TikTok, Telegram va Facebook kabi platformalarda har kuni milliardlab foydalanuvchilar matn, fotosurat, musiqa, video va grafik asarlarni yaratadi, tarqatadi va qayta

joylashtiradi. Bunday raqamli kontentning aksariyati mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari nuqtai nazaridan mustaqil ijodiy faoliyat natijasi — himoyalanadigan asar hisoblanadi. Biroq kontentning ulkan hajmi, uni nusxalash va tarqatishning texnik osonligi hamda platformalarning transchegaraviy tabiati an’anaviy mualliflik-huquqiy institutlarni jiddiy sinovga qo‘ymoqda.

Muammoning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchiligi asosan asarni an’anaviy (moddiy yoki analog) muhitda muhofaza qilishga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarga xos munosabatlarni — xususan, kontentni joylashtiruvchi platformalarning huquqiy maqomi va javobgarligini — yetarli darajada tartibga solmaydi. Natijada, huquq egasi o‘z asari ijtimoiy tarmoqda ruxsatsiz foydalanilganda samarali va tezkor himoya mexanizmiga ega bo‘lmaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi — ijtimoiy tarmoqlarda raqamli kontentdan foydalanishning mualliflik-huquqiy jihatlarini nazariy tahlil qilish, milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlash va rivojlangan huquqiy tizimlar (Yevropa Ittifoqi va AQSh) tajribasi asosida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va formal-yuridik metodlardan foydalanildi.

1. Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli kontent va mualliflik huquqi ob’ekti

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, fan, adabiyot va san’at asariga bo‘lgan mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo‘yicha yuzaga keladi va huquqning yuzaga kelishi hamda amalga oshirilishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi[1] . Ushbu qoida Bern konvensiyasining avtomatik muhofaza tamoyiliga to‘liq mos keladi[2] . Shu bois ijtimoiy tarmoqda joylashtirilgan har qanday original fotosurat, video, matn, musiqiy yoki grafik asar — agar u ijodiy faoliyat natijasi va ob’ektiv shaklga ega bo‘lsa — yuzaga kelgan paytdan boshlab muhofaza ostiga olinadi.

Zamonaviy huquqiy adabiyotda ijtimoiy tarmoqlarda yaratiladigan mahsulotni ifodalash uchun foydalanuvchi yaratgan kontent (user-generated content, UGC) tushunchasi qo‘llaniladi[3]. Bu-professional bo‘lmagan foydalanuvchilar tomonidan yaratilib, ochiq platformalarda joylashtiriladigan ijodiy materialdir. UGC huquqiy jihatdan bir necha darajaga bo‘linadi:

Birinchidan, to‘liq original asarlar (foydalanuvchining o‘zi suratga olgan video, chizgan rasm, yozgan matn) — bularga nisbatan foydalanuvchi to‘laqonli muallif hisoblanadi;

Ikkinchidan, hosila (lotin) asarlar — mavjud asar asosida yaratilgan remiks, tarjima, parodiya, mem yoki “cover” ijro — bularda dastlabki asar muallifining huquqlari ham saqlanib qoladi;

Uchinchidan, o‘zga shaxs asarini o‘zgartirmasdan qayta joylashtirish (repost, share) — bu ko‘pincha asardan foydalanish, ya’ni qayta chiqarish va umumga yetkazish hisoblanib, huquq egasining ruxsatini talab qiladi[4]. Aynan ikkinchi va uchinchi toifadagi harakatlar ijtimoiy tarmoqlardagi mualliflik-huquqiy nizolarning asosiy manbai hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi Qonuni. 5-, 6-moddalar. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/acts/-34642
[2] Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi (1886-yil, 1971-yil Parij tahriri). 5(2)-modda. // WIPO.
[3] Mendis S. Copyright Enforcement on Social Media Platforms: Implications for Freedom of Expression in the Digital Public Sphere // Introduction to Digital Humanism. – Springer, 2023. – DOI: 10.1007/978-3-031-45304-5_29.
[4] Леонтьев К.Б. Авторское право в интернете: три стадии одного процесса. – М.: КОПИРУС.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda huquq buzilishining tipik ko‘rinishlari

Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqi buzilishi quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

-Ruxsatsiz qayta joylashtirish (repost). Muallif ismi ko‘rsatilmasdan yoki manbaga havolasiz o‘zga kontentni qayta chop etish nafaqat mulkiy, balki shaxsiy nomulkiy huquqlar (muallif ismiga bo‘lgan huquq, muallif obro‘sini himoya qilish huquqi) buzilishiga olib keladi.

-Musiqiy asardan ruxsatsiz foydalanish. Videolar fonida (Reels, Shorts, TikTok videolarida) himoyalangan fonogramma yoki musiqiy asardan foydalanish nafaqat mualliflik, balki turdosh huquqlar buzilishini keltirib chiqaradi.

-“Cover” ijro va remiks. Asosiy asardan hosila mahsulot yaratish, garchi ijodiy hissa qo‘shilgan bo‘lsa-da, dastlabki muallifning ruxsatini talab qiladi.

-Mem va parodiya. Ko‘plab huquqiy tizimlarda parodiya erkin foydalanish doirasida yo‘l qo‘yiladi, biroq O‘zbekiston qonunchiligida parodiya alohida istisno sifatida aniq mustahkamlanmagan.

-Tijoriy maqsadda foydalanish. Blogerlar va kontent yaratuvchilarning o‘zga asarini reklama yoki daromad olish uchun ishlatishi eng og‘ir huquqbuzarlik toifasiga kiradi.

Ushbu holatlarda huquq egasi uchun asosiy muammo — huquqbuzarni aniqlash (foydalanuvchilar ko‘pincha anonim yoki soxta profil ostida harakat qiladi) va transchegaraviy platformaga ta’sir ko‘rsatishning cheklanganligi hisoblanadi.

3. Milliy qonunchilik holati va muammoli jihatlar

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni mualliflik huquqining ob’ektlari, mazmuni, amal qilish muddati (umumiy qoida sifatida muallif hayoti davomida va vafotidan keyin yetmish yil) hamda himoya usullarini belgilaydi[5] . Huquq buzilishi uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksi doirasida javobgarlik nazarda tutilgan. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda quyidagi tizimli bo‘shliqlar mavjud:

1. Kontentni joylashtiruvchi platformalarning huquqiy maqomi va javobgarligi belgilanmagan. Qonun asosan huquq egasi va foydalanuvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatga qaratilgan. Ijtimoiy tarmoq platformasi — huquq egasi bilan huquqbuzar o‘rtasidagi informatsion vositachi sifatida — qanday hollarda javobgar bo‘lishi yoki javobgarlikdan ozod etilishi qonunchilikda aniq tartibga solinmagan.

2. “Xabar berish va olib tashlash” (notice-and-takedown) mexanizmi mavjud emas. Huquq egasi o‘z asari ruxsatsiz joylashtirilganini aniqlagan taqdirda, platformaga murojaat qilish va kontentni tezkor olib tashlatish uchun qonun bilan mustahkamlangan tartibot yo‘q. Amaliyotda huquq egalari faqat platformalarning ichki (xususiy) shikoyat mexanizmlariga tayanishga majbur.

3. Erkin foydalanish holatlari raqamli muhitga moslashtirilmagan. Parodiya, mem, ta’lim yoki iqtibos maqsadida foydalanishning ijtimoiy tarmoqlarga xos ko‘rinishlari qonunda aniq tartibga solinmagan, bu esa huquqni qo‘llashda noaniqlik keltirib chiqaradi.

4. Transchegaraviy huquqni qo‘llash mexanizmi zaif. Aksariyat yirik platformalar chet elda joylashgan bo‘lib, milliy huquqni qo‘llash organlarining ularga bevosita ta’siri cheklangan.

4. Qiyosiy-huquqiy tahlil: Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribasi

4.1. Yevropa Ittifoqi: DSM direktivasining 17-moddasi

Yevropa Ittifoqining Raqamli yagona bozorda mualliflik huquqi to‘g‘risidagi 2019/790-sonli direktivasining (DSM direktivasi) 17-moddasi platformalar javobgarligida tub burilish yasadi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-221-son qarori

Direktivagacha onlayn platformalar foydalanuvchilar joylagan kontent uchun, qoida tariqasida, ikkilamchi (bilvosita) javobgarlikka tortilar edi . 17-modda esa onlayn kontent almashish xizmati provayderlarini (OCSSP) foydalanuvchilar yuklagan kontent uchun bevosita javobgar deb belgiladi[6] .

17-moddaga muvofiq, platforma javobgarlikdan xalos bo‘lish uchun: (a) huquq egalaridan ruxsat (litsenziya) olishga "eng yaxshi sa’y-harakatlar"ini ko‘rsatishi; (b) huquq egalari ma’lumot bergan asarlarni joylashtirishning oldini olishga sa’y-harakat qilishi; hamda (v) xabar olingandan so‘ng kontentni tezkor olib tashlashi lozim. Amaliyotda bu talablar platformalarni avtomatik “yuklash filtrlari”dan foydalanishga undadi, bu esa so‘z erkinligi nuqtai nazaridan tanqidga uchradi[7] . Yevropa Ittifoqi Adliya sudi 2022-yilda 17-moddani ifoda erkinligiga mos deb tan oldi, biroq foydalanuvchilar huquqlarini himoya qiluvchi kafolatlar shart ekanini ta’kidladi[8].

DSM modelining asosiy afzalligi — javobgarlikni huquq egasi emas, balki eng katta texnik imkoniyatga ega bo‘lgan platformaga yuklashi. Kamchiligi esa — kichik platformalar uchun mutanosiblik muammosi va "over-blocking" (haddan tashqari to‘sish) xavfi.

4.2. AQSh: DMCA qonunining 512-bo‘limi

AQShning Raqamli ming yillik mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonuni (DMCA) 512-bo‘limi "xavfsiz boshpana" (safe harbor) rejimini nazarda tutadi[9] . Ushbu rejimga ko‘ra, onlayn xizmat provayderi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar) foydalanuvchilar joylagan kontent uchun, agar u belgilangan shartlarga rioya etsa, mulkiy javobgarlikdan ozod bo‘ladi.

Asosiy mexanizm — “xabar berish va olib tashlash” (notice-and-takedown): huquq egasi belgilangan rekvizitlar (huquq egasi imzosi, huquq buzilgan asar va uning joylashgan manzilini ko‘rsatish, vijdonan ishonch to‘g‘risida bayonot)ni o‘z ichiga olgan xabarni platformaga yuboradi; platforma esa kontentni tezkorlik bilan olib tashlashi lozim[10]. Muhim kafolat sifatida, foydalanuvchiga qarshi xabar (counter-notification) berish va kontentni tiklash huquqi berilgan — bu asossiz yoki suiiste’mol xarakteridagi da’volardan himoya qiladi .

DMCA modelining afzalligi — huquq egasi uchun tezkor va arzon himoya, foydalanuvchi uchun esa qarshi xabar orqali muvozanat. Kamchiligi — notice-and-takedownning suiiste’mol qilinishi (asossiz da’volar bilan qonuniy kontentni o‘chirtirish) hamda takroran joylash muammosi.

4.3. Qiyosiy xulosa

Quyidagi jadval uch huquqiy tizimdagi asosiy yondashuvlarni umumlashtiradi:

Mezon	O‘zbekiston	Yevropa Ittifoqi (17-modda)	AQSh (DMCA §512)
Platforma javobgarligi	Aniq belgilanmagan	Bevosita (OCSSP)	Shartli ozod (safe harbor)
Notice-and-takedown	Mavjud emas	Mavjud	To‘liq mustahkamlangan
Qarshi xabar (counter-notice)	Yo‘q	Qisman	Mavjud

[6] Directive (EU) 2019/790 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 on copyright and related rights in the Digital Single Market, Article 17. // Official Journal of the EU, L 130.
[7] Koltay A. The Protection of Freedom of Expression from Social Media Platforms // Mercer Law Review. – 2022. – Vol. 73, No. 2.
[8] Court of Justice of the European Union. Case C-401/19, Republic of Poland v. European Parliament and Council of the European Union, judgment of 26 April 2022.
[9] Digital Millennium Copyright Act, 17 U.S.C. § 512 (1998). // U.S. Copyright Office. URL: https://www.copyright.gov/dmca/
[10] U.S. Copyright Office. Section 512 of Title 17: A Report of the Register of Copyrights. – Washington, 2020.

Ko‘rinadiki, ikkala model ham platformani mualliflik-huquqiy munosabatning faol ishtirokchisi sifatida tan oladi va huquq egasi uchun tezkor, qonun bilan mustahkamlangan himoya tartibotini nazarda tutadi. O‘zbekiston qonunchiligi esa bu jihatdan bo‘shliqqa ega.

5. Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda yaratilayotgan raqamli kontent, umumiy qoida sifatida, mualliflik huquqining ob’ekti hisoblanadi va yaratilgan paytdan boshlab muhofaza ostiga olinadi. Biroq milliy qonunchilik bunday munosabatlarning xususiyatlarini — ayniqsa platformalar javobgarligini — yetarli tartibga solmaydi.

Ikkinchidan, rivojlangan huquqiy tizimlar (Yevropa Ittifoqi va AQSh) platformalarni mualliflik-huquqiy muhofazaning faol subyektiga aylantirgan va huquq egalari uchun tezkor himoya mexanizmlarini joriy etgan[11] . Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1) “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunga informatsion vositachi (platforma) tushunchasi va uning javobgarligi to‘g‘risida alohida normalar kiritish;

2) Huquq egasi uchun “xabar berish va olib tashlash” tartibotini hamda foydalanuvchi uchun qarshi xabar berish huquqini qonun darajasida mustahkamlash;

3) Raqamli muhitga mos erkin foydalanish istisnolarini (parodiya, mem, iqtibos, ta’lim maqsadida foydalanish) aniq belgilash;

4) Platformalar bilan hamkorlikda kontentni identifikatsiya qilish (raqamli iz, kontent-ID) va depozitariy tizimlarini rivojlantirish;

5) Transchegaraviy huquqbuzilishlarga qarshi xalqaro hamkorlik va WIPO doirasidagi mexanizmlardan samarali foydalanish.

Ushbu choralar milliy qonunchilikni raqamli davr talablariga moslashtirish, huquq egalari manfaatlarini himoya qilish va ayni paytda foydalanuvchilar huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/acts/-34642
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism). – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-221-son qarori.
4. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi (1886, 1971-yil tahriri). – WIPO.
5. Butunjahon savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi bitimi (TRIPS, 1994).
6. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi shartnomasi (WCT, 1996).
7. Directive (EU) 2019/790 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 on copyright and related rights in the Digital Single Market. // Official Journal of the EU, L 130.
8. Digital Millennium Copyright Act, 17 U.S.C. § 512 (1998). // U.S. Copyright Office. URL: https://www.copyright.gov/dmca/

[11] G‘afurov A.B. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya. – T., 2017; Yakubova I.B. Mualliflik huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 110 b.

9. Oqyulov O., Gafurova N.E. Intellektual mulk. Darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. – 588 b.
10. Yakubova I.B. Mualliflik huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 110 b.
11. G‘afurov A.B. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya. – T., 2017.
12. Mendis S. Copyright Enforcement on Social Media Platforms: Implications for Freedom of Expression in the Digital Public Sphere // Introduction to Digital Humanism. – Springer, 2023. – DOI: 10.1007/978-3-031-45304-5_29.
13. Koltay A. The Protection of Freedom of Expression from Social Media Platforms // Mercer Law Review. – 2022. – Vol. 73, No. 2.
14. Леонтьев К.Б. Авторское право в интернете: три стадии одного процесса. – М.: КОПИРУС.
15. Court of Justice of the European Union. Case C-401/19, Republic of Poland v. Parliament and Council, judgment of 26 April 2022.
16. U.S. Copyright Office. Section 512 of Title 17: A Report of the Register of Copyrights. – Washington, 2020.